

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN TEMIR YO'LLARDAN TEXNIK FOYDALANISH QOIDALARI VA POYEZDLAR HARAKATI XAVFSIZLIGI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Temir yo'llardan texnik foydalanish qoidalarini va poyezdlar harakati xavfsizligi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrda qabul qilingan "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-sonli qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Temir yo'llardan texnik foydalanish qoidalarini va poyezdlar harakati xavfsizligi

1. Temir yo'l inshootlari va qurilmalarining tuzilishi hamda ularning texnik holatini nazorat qilish;
2. Signallashtirish, markazlashtirish va blokirovka tizimlarining ishlash prinsiplari;
3. Poyezdlar harakati va stansiya ishini tashkil etish;
4. Poyezdlar harakati jarayonida qo'llaniladigan hujjatlar va ularni to'ldirish tartibi;
5. Poyezdlar harakati xavfsizligi va maxsus holatlarda ish yuritish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Temir yoʻl inshootlari va qurilmalarining tuzilishi hamda ularning texnik holatini nazorat qilish.	Temir yoʻl inshootlari va qurilmalarining asosiy turlarini ajrata olish; yoʻlning rejasi, profili, tuproq koʻtarma va sunʼiy inshootlarning tuzilishini tahlil qila olish; gabaritlar va yoʻl xoʻjaligi elementlarini aniqlay olish; elektr taʼminoti, suv va oqava tizimlarini oʻrganishi; inshoot va qurilmalarni texnik koʻrikdan oʻtkazish hamda taʼmirlash tartibini tushunishi; ularning texnik holatini nazorat qilish usullarini tahlil qilish koʻnikmalaiga ega boʻladi.	25 %	10 ta
2	Signallashtirish, markazlashtirish va blokirovka tizimlarining ishlash prinsiplari	Sветофор turlari va ularning maʼnosini tushunish; signallarni tahlil qilish va ularning tasnifini bilish; stansiya va yoʻl blokirovka tizimlarining ishlash jarayonini tushunish; avtomatik va yarim avtomatik blokirovka tizimlarining farqlarini ajratish; markazlashtirish va dispetcherlik boshqaruvi tizimlarini oʻrganish; signalizatsiya va aloqa qurilmalariga texnik xizmat koʻrsatish tartibini biladi.	30 %	12 ta
3	Poyezdlar harakati va stansiya ishini tashkil etish	Poyezdlar harakat grafigini oʻqish va tuzish; stansiya ish jarayonining texnik asoslarini tahlil qilish; strelkali oʻtkazgichlardan foydalanish qoidalarini tushunish; manyovrlarni tashkil etish va ularni xavfsiz amalga oshirish; saralash tepaliklari, tortish yoʻllaridagi ishlarni nazorat qilish; poyezdlarni qabul qilish va joʻnatishni tezkor rejalashtirish; lokomotiv va vagon xoʻjaliklari faoliyatini boshqarish koʻnikmalaiga ega boʻladi.	12.5 %	5 ta
4	Poyezdlar harakati jarayonida qoʻllaniladigan hujjatlar va ularni toʻldirish tartibi	Poyezdlar harakatiga oid hujjat turlarini farqlash; DU shaklidagi jurnallar va blankalarning mazmunini tushuntirish; ularni amaliy toʻldirishni bajarish; stansiya navbatchisi tomonidan yuritiladigan hujjatlar bilan ishlash koʻnikmalarini shakllantirish; nosozlik holatlarida harakatni rasmiylashtirish tartibini oʻrganish; harakat xavfsizligini taʼminlashda hujjatlar ahamiyatini tahlil qila olish bilim va koʻnikmalaiga ega boʻladi.	15 %	6 ta

5	Poyezdlar harakati xavfsizligi va maxsus holatlarda ish yuritish	Avtomatik blokirovka, yarim avtomatik blokirovka va elektr jezl tizimlarida yuzaga keladigan nosozliklarda harakat tartibini tushunish; xavfli yuklarni tashish qoidalarini bilish; tez yurar poyezdlar harakatini boshqarish tartibini bilish; peregonida majburiy to'xtashdagi harakat ketma-ketligini tahlil qila olish; xavfsizlik texnikasi va poyezdlar harakati barqarorligini ta'minlash choralarini izohlay olish bo'yicha bilim va ko'nikmalaiga ega bo'ladi.	17,5 %	7 ta
---	--	---	--------	------

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	17.5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	57.5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	25 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta’limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo‘shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llaridan texnikaviy foydalanish qoidalari. Toshkent 2012 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llarida poezdlar harakati va manyovr ishlari bo‘yicha Yo‘riqnoma Toshkent 2012 y.
3. Handbook of transport strategy, policy and institutions, (258-260, 260-263 betlar)
4. M.X.Rasulov., Xusanov S.X., Fayziboev Sh. Temir yo‘llardan texnik foydalanish qoidalari. Toshkent.2013y
5. O‘zbekiston respublikasi temir yollarida poyezdlar harakati va manyovr ishlari boyicha yo‘riqnoma. T.: “O‘zdavtemiryo‘lnazorat” DI, 2014.